

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA VAZIRINING
BUYRUG'I**

**SUG'URTALOVCHILARNING SUG'URTA ZAXIRALARI TO'G'RISIDAGI NIZOMNI
TASDIQLASH HAQIDA**

**[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 15-dekabrda 1882-son bilan
davlat ro'yxatidan o'tkazildi]**

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi **Qonuni**, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martdagি PQ-2847-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi to'g'risidagi **nizomga** muvofiq buyuraman:

*(muqaddima O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2017-yil 7-iyuldagи 96-sonli buyrug'i
(ro'yxat raqami 1882-5, 17.07.2017-y.) tahririda — O'R QHT, 2017-y., 29-son, 713-modda)*

1. Ilova qilinayotgan Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risidagi **Nizom** tasdiqlansin.

2. Sug'urtalovchilar 2008-yilning 31-dekabrigacha bo'lgan muddatda ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasi to'g'risidagi nizomlarini yuqorida ko'rsatilgan **Nizomga** muvofiqlashtirilishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2006-yil 8-fevraldagи 11-sonli "Sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta zaxiralarini shakllantirish hamda joylashtirish tartibi va shartlari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi **buyrug'i** (2006-yil 6-may, ro'yxat raqami 1571 — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006-y., 19-son, 166-modda) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tgan kundan boshlab o'n kundan keyin kuchga kiradi.

Moliya vaziri R. AZIMOV

Toshkent sh.,
2008-yil 20-noyabr,
107-son

Moliya vazirining 2008-yil 20-noyabrdagi 107-son buyrug'i bilan
TASDIQLANGAN

**Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risidagi
NIZOM**

Oldingi tahrirga qarang.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi **Qonuniga** muvofiq sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta zaxiralarini hisoblash uslubi hamda shakllantirish va joylashtirish tartibiga talablarni belgilaydi.

*(muqaddima O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2017-yil 7-iyuldagи 96-sonli buyrug'i
(ro'yxat raqami 1882-5, 17.07.2017-y.) tahririda — O'R QHT, 2017-y., 29-son, 713-modda)*

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom davlat ijtimoiy sug'urta tashkilotlariga nisbatan qo'llanilmaydi.

2. Mazkur Nizom maqsadlarida qo'llaniladigan asosiy tushunchalar:

ajratilgan aktivlar — sug'urtalovchining sug'urta zaxiralari summasiga muvofiq keluvchi aktivlari;

bartaraf etilmagan da'vo — sug'urta hodisasining yuz berishi munosabati bilan vujudga kelgan, hisobot sanasiga u bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatları hali bajarilmagan yoki to'liq bajarilmagan, xabar qilingan zarar;

bog‘liq shaxslar — sug‘urtalovchi bilan alohida munosabatlarga ega bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxslar, ya’ni:

sug‘urtalovchining Kuzatuv kengashi yoki boshqa vakolatli organi tarkibidagi har qanday shaxs, shuningdek, ularning yaqin qarindoshlari;

sug‘urtalovchining ustav kapitalida 20 foizdan ortiq ulushga ega har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs, yoki ushbu yuridik shaxsning har qanday rahbari yoki yirik aksiyadorlari (ta’sischilari), shuningdek ularning yaqin qarindoshlari;

sug‘urtalovchining faoliyatini qonunchilikka muvofiq nazorat qiluvchi yuridik shaxslar va ularning boshqaruvchilar;

sug‘urtalovchining ulushi ustav kapitalida 20 foizdan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek, ushbu yuridik shaxslarning mansabdor shaxslari va ularning yaqin qarindoshlari.

Yuqorida ko‘rsatilgan shaxslardan biri bilan bog‘liq shaxs ularning har biri bilan bog‘liq shaxs bo‘lib hisoblanadi;

Oldingi tahrirga qarang.

Agentlik — O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi;

(*2-bandning o‘ninchи xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2021-yil 29-martdagи 18-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1882-6, 19.04.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2021-y., 10/21/1882-6/0346-son*)

diversifikatsiya — sug‘urta zaxiralari mablag‘lari yoki ulardan olinadigan daromadlarning ehtimol tutilgan yo‘qotishlar tavakkalchilagini pasaytirish maqsadida sug‘urtalovchining ushbu mablag‘larining turli qo‘yilma obyektlari o‘rtasida taqsimplanishi;

zararlarni bartaraf etish bo‘yicha xarajatlar — sug‘urta qildiruvchi, naf oluvchi yoki sug‘urtalangan shaxsning mulkiy manfaatlariiga yetkazilgan zarar (ziyon) hajmini baholash va kamaytirish bilan bog‘liq ekspert va maslahat yoki boshqa xizmatlar uchun haq to‘lashga yo‘naltirilgan pul mablag‘lari summasi;

mablag‘larning likvidligi — sug‘urtalovchining o‘z majburiyatlarini bajarishi uchun sug‘urta zaxiralarning nominal qiymatini saqlab qolgan holda ularni pul mablag‘lariga tezlik bilan konversiyalash imkoniyati;

mablag‘larning qaytarilishi — sug‘urtalovchining sug‘urta zaxiralari mablag‘larini joylashtirishning aniq sharoitlarida investitsion tavakkalchilikni eng past darajaga keltirish orqali imkon qadar yuqori xavfsizligini ta‘minlash. Ushbu holatda investitsion tavakkalchilik deganda investitsiyalardan olingan haqiqiy foyda mo‘ljallangan foydadan past bo‘lishi ehtimoli tushuniladi;

mablag‘larning foydaliligi — sug‘urtalovchining sug‘urta zaxiralari mablag‘laridan davlat qimmatli qog‘ozlarining ikkilamchi bozordagi daromadliligidan kam bo‘limgan darajada daromad olish;

naf oluvchi — sug‘urta qildiruvchi tomonidan sug‘urta tovonini yoki sug‘urta pulini oluvchi sifatida tayinlangan va sug‘urta qilinmagan jismoniy yoki yuridik shaxs;

sug‘urta qildiruvchi — sug‘urtalovchi bilan sug‘urta shartnomasini tuzuvchi, sug‘urta shartnomasi bo‘yicha hisoblangan sug‘urta mukofotini to‘lovchi hamda sug‘urtalovchilar bilan muayyan sug‘urta munosabatlariiga kiruvchi har qanday tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxs yoki to‘liq fuqarolik layoqatiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs;

sug‘urta qilingan — sug‘urtada ishtirok etuvchi, mulkiy manfaatlari sug‘urta himoyasining obyekti bo‘lgan, jismoniy yoki yuridik shaxs. Sug‘urta qilingan, agar o‘ziga nisbatan sug‘urta shartnomasini tuzsa va hisoblangan sug‘urta mukofotini to‘lasa, ayni paytda sug‘urta qildiruvchi ham bo‘lishi mumkin. Agar sug‘urta shartnomasi boshqa shaxsga nisbatan tuzilsa, u holda sug‘urta qildiruvchi va sug‘urta qilinganlar sug‘urtada ishtirok etuvchi turli shaxslar hisoblanadilar;

sug‘urta mukofotlari (sug‘urta brutto-mukofotlar) — so‘m yoki chet el valyutasida to‘lanadigan, hisoblash tartibi va miqdori sug‘urta shartnomasi bilan belgilanadigan, sug‘urta qildiruvchi tomonidan sug‘urtalovchiga to‘lanadigan badallar;

sug‘urta zaxiralari — sug‘urta qildiruvchi tomonidan so‘m yoki xorijiy valyutada to‘langan sug‘urta mukofotlari hisobiga sug‘urtalovchi tomonidan shakllantiriladigan hamda

sug‘urtalovchining balansida aktiv yoki majburiyat ko‘rinishida hisobga olinadigan, sug‘urta to‘lovlari bo‘yicha moliyaviy majburiyatlarni bajarish, zararlarni bartaraf etish bo‘yicha xarajatlar va ogohlantirish chora-tadbirlarini moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar;

sug‘urta zarari — sug‘urta hodisasining yuz berishi natijasida sug‘urta qildiruvchi, naf oluvchi yoki sug‘urta qilingan shaxsning mulkiy manfaatlariga yetkazilgan va sug‘urta shartnomasining shartlariga muvofiq sug‘urtalovchi tomonidan qoplanadigan zarar (ziyon) miqdorining puldagi ifodasi;

texnik zaxiralar — hisobot sanasiga alohida sug‘urta shartnomasi va/yoki umumiy sug‘urta portfeli bo‘yicha hisoblangan, sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urta to‘lovlari bo‘yicha moliyaviy majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar summasi;

falokat — muayyan joyda bir vaqtning o‘zida sodir bo‘luvchi hamda buning natijasida bir necha sug‘urtalangan obyektlarga juda yirik zarar yetkazuvchi bitta voqeal yoki o‘zaro bog‘liq voqealar ketma-ketligi;

xabar qilingan zarar — sug‘urta hodisasining yuz berishi to‘g‘risida qonun yoki sug‘urta shartnomasida belgilangan tartibda sug‘urtalovchiga xabar qilingan hamda buning natijasida sug‘urta qildiruvchi, naf oluvchi yoki sug‘urtalangan shaxsning mulkiy manfaatlariga yetkazilgan ziyoning (shikastning) puldagi ifodasi;

yuz berishi mumkin bo‘lgan eng yuqori zarar — bir yoki bir necha sug‘urta shartnomalari shartlari bo‘yicha ularda belgilangan sug‘urta hodisalari natijasida sug‘urtalovchi yoki qayta sug‘urtalovchi ko‘rishi mumkin bo‘lgan sug‘urta zararining baholangan eng yuqori hajmi;

yalpi hisoblangan sug‘urta mukofoti — hisobot sanasiga qadar oldingi o‘n ikki oy mobaynidagi, kiruvchi qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini qo‘shilgan, ushbu davrda qaytarilgan sug‘urta mukofotlarini chegirgan holdagi, biroq qayta sug‘urta qilishga berilgan shartnomalar bo‘yicha mukofotlarni chegirgunga qadar hisoblangan sug‘urta mukofotlarining umumiy miqdori;

hisoblangan sug‘urta mukofoti — pul mablag‘lari qachon olinganligidan qat’i nazar, hisobot davrida hisoblangan sug‘urta mukofotlari;

hisobot davri — 1-yanvardan 31-dekabrgacha bo‘lgan kalendar yil. Bunda mazkur Nizomga muvofiq hisob-kitoblar va ma’lumotlar tuziladigan hisobot davri deb, hisobot yilining 1-yanvardidan har bir choragining oxirgi kalendar kunigacha bo‘lgan davr qabul qilinadi;

hisobot sanasi — mazkur Nizomga muvofiq hisob-kitoblar va ma’lumotlar tuziladigan hisobot davrining oxirgi kalendar kuni.

II. Sug‘urta zaxiralari hisoblash uslubi va shakllantirish tartibiga talablar

3. Sug‘urta zaxiralari sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urtanening har bir turi (klassi) bo‘yicha sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta tovonini (sug‘urta pulini) to‘lash nazarda tutilgan valyutada shakllantiriladi.

Sug‘urtalovchi buxgalteriya hisobotini tuzishda hisobot sanasiga sug‘urta faoliyatini amalgamoshirishdan olingan moliyaviy natijalarini aniqlashda sug‘urta zaxiralari hajmini hisoblaydi. Sug‘urta zaxiralari hisob-kitobi sug‘urtalovchining hisob va hisobot ma’lumotlariga asoslangan holda amalgamoshiriladi.

4. Har bir hisobot sanasiga har bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta zaxiralari hisob-kitob qilish uchun zarur ma’lumotlarni o‘z ichiga oluvchi hujjatlar sug‘urtalovchi tomonidan ushbu shartnomani bo‘yicha majburiyatlar to‘liq bajarilgan sanadan boshlab, 3 yildan kam bo‘limgan muddatda saqlanishi lozim. Xususan, quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oluvchi hujjatlarning saqlanishi lozim:

shartnoma (polis, guvohnoma, kvitansiya) raqami;

shartnomaning kuchga kirgan sanasi (sug‘urtanening amal qilishining boshlanish sanasi);

shartnomaning amal qilish muddati;

sug‘urta puli (pullari) miqdori (miqdorlari);

hisoblangan sug‘urta mukofoti (badallari) miqdori;

sug‘urta mukofoti (badallari) hisoblangan sana;

sug‘urta mukofotining (badallarining) miqdori (miqdorlari) va to‘langan sanasi (sanalari);

shartnama tuzganlik uchun hisoblangan mukofot miqdori;

Oldingi tahrirga qarang.

qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda sug‘urta mukofotidan (badallaridan) ajratmalar miqdori;

(4-bandning o‘ninchи xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-ton)

shartnomani muddatidan oldin tugatish sanasi;

shartnama shartlarini o‘zgartirish sanasi (sanalari);

shartnomaning muddatidan oldin tugatilishi (shartlarining o‘zgartirilishi) munosabati bilan sug‘urta qildiruvchilarga (qayta sug‘urta qildiruvchilarga) qaytarilgan sug‘urta mukofoti (badallari) miqdori;

sug‘urta mukofotini (badallarini) qaytarish sanasi;

sug‘urta hodisasi (hodisalari) to‘g‘risida ariza tushgan sana (sanalar);

sug‘urta hodisasi (hodisalari) yuz bergan sana (sanalar);

xabar qilingan zarar (zararlar) miqdori (miqdorlari), shuningdek, uni bartaraf etish jarayonida xabar qilingan zarar (zararlar) miqdorining (miqdorlarining) o‘zgarishi to‘g‘risida ma’lumot;

sug‘urta to‘lovi (to‘lovlar) sanasi (sanalari);

sug‘urta to‘lovi (to‘lovlar) miqdori (miqdorlari);

sug‘urta to‘lovini (to‘lovlarini) to‘lashni rad etish sanasi (sanalari).

Ko‘rsatilgan ma’lumotlar elektron ma’lumotlar bazasi, shuningdek, Tuzilgan sug‘urta shartnomalarini hisobga olish jurnali, Zararlar va muddatidan oldin tugatilgan sug‘urta shartnomalarini hisobga olish jurnali, Qayta sug‘urta qilishga qabul qilingan shartnomalarni hisobga olish jurnali, Qayta sug‘urta qilishga qabul qilingan shartnomalar bo‘yicha zararlarni hisobga olish jurnali uchun ham majburiy rekvizitlar hisoblanadi. Sug‘urtalovchi sug‘urta zaxiralari hisob-kitobini ko‘rsatilgan registrlarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlar asosida amalga oshiradi.

5. Mazkur Nizomga muvofiq sug‘urtalovchi o‘zining balansida (holatga ko‘ra) majburiyat yoki aktivlar sifatida hisobga olinuvchi quyidagi texnik zaxiralarni shakllantirishi shart:

a) ishlab topilmagan mukofot zaxirasi (umumiyligida sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishda);

b) mukofotlar zaxirasi (hayotni sug‘urta qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishda);

v) keyingi yillarda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo‘ljallangan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi (FJMS BZ) (transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishda);

Oldingi tahrirga qarang.

v-1) keyingi yillarda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo‘ljallangan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi (IFJMS BZ) (ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishda);

(5-band O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009-yil 24-iyuldagи 74-tonli (ro‘yxat raqami 1882-1, 13.08.2009-y.) buyrug‘iga asosan “v-1” kichik band bilan to‘ldirilgan — O‘R QHT, 2009-y., 32-33-ton, 367-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

v²) keyingi yillarda tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo‘ljallangan tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi (TFJMS BZ) (tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishda);

(5-band O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2015-yil 29-oktabrdagi 94-sonli buyrug'iiga (ro'yxat raqami 1882-4, 11.11.2015-y.) asosan "v²" kichik band bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2015-y., 45-son, 580-modda)

g) sug'urta hodisasining yuz berishi bilan kelib chiquvchi hamda sug'urta shartnomasi shartlari bo'yicha qoplanishi lozim bo'lган zarar (ziyon) hajmiga muvofiq holda aniqlanadigan va quyidagilardan tarkib topgan zararlar zaxirasi:

xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi (XZZ);
sodir bo'lган, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi (SXZZ).

Oldingi tahrirga qarang.

6. Sug'urtalovchi qo'shimcha ravishda:

(6-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2011-yil 14-noyabrdagi 69-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1882-2, 14.12.2011-y.) tahririda — O'R QHT, 2011-y., 50-son, 532-modda) ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasini (OChZ);
falokatlar zaxirasini (FZ);
zararlilikning tebranishi zaxirasini (ZTZ);
aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasini (ANZ);
sug'urta faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lган boshqa turdagи sug'urta zaxiralarini tashkil etishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

Bunda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni va/yoki ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni va/yoki tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshiruvchi sug'urtalovchilar tegishlicha, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasini (FJMS OChZ) va/yoki ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasini (IFJMS OChZ) va/yoki tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasini (TFJMS OChZ) shakllantirishlari shart.

(6-bandning yetinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2015-yil 29-oktabrdagi 94-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1882-4, 11.11.2015-y.) tahririda — O'R QHT, 2015-y., 45-son, 580-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

7. Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasidan, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasidan va tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasidan tashqari, texnik zaxiralarni hisob-kitob qilish bazasi sifatida bazaviy sug'urta mukofoti — hisobot davrida sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomalarini tuzish bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatilganlik uchun hisoblangan komission mukofoti va ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasini shakllantirishga yo'naltirilgan mablag'lar summasi chegirilgan, hisoblangan sug'urta brutto-mukofoti qabul qilinadi.

(7-band O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2015-yil 29-oktabrdagi 94-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1882-4, 11.11.2015-y.) tahririda — O'R QHT, 2015-y., 45-son, 580-modda)

8. Foydani aniqlashda texnik zaxiraning kamayishi sug'urtalovchining daromadini, texnik zaxiraning ko'payishi esa zararini namoyon etadi.

9. Ishlab topilmagan mukofot zaxirasi (IMZ) — bu sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasi bo'yicha hisoblangan, keyingi hisobot davrlarida amalga oshirilishi mumkin bo'lган, kelgusi to'lovlarini ta'minlash bo'yicha majburiylarni bajarish uchun mo'ljallangan hisobot davrining chegaralaridan chiquvchi shartnomaning amal qilish davriga tegishli sug'urta mukofotining qismi.

IMZ mablag'lari hisobidan sug'urta qildiruvchilarga (qayta sug'urta qildiruvchilarga) muddatidan oldin tugatilgan sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlarini qaytarish amalga oshiriladi.

10. IMZni hisoblash uchun sug'urta faoliyati to'rtta hisob guruhlariga bo'linadi:

a) 1-hisob guruhi:

baxtsiz hodisalardan sug‘urta qilish (1-klass);
kasallikdan ehtiyot shart sug‘urta qilish (2-klass);
er usti transport vositalarini sug‘urta qilish (3-klass);
harakatlanadigan temir yo‘l tarkibini sug‘urta qilish (4-klass);
aviatsiya sug‘urtasi (5-klass);
dengiz sug‘urtasi (6-klass);
yo‘ldagi mol-mulkni sug‘urta qilish (7-klass);
mol-mulkni olovdan, tabiiy ofatdan (8-klass) va zarardan sug‘urta qilish (9-klass);
avtofuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish (10-klass);
aviatsiya (11-klass) va dengiz (12-klass) sug‘urtasi doirasida javobgarlikni sug‘urta qilish;
umumiyl fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish (13-klass) (qarz oluvchilarning kreditni
to‘lamaganligi uchun javobgarligini sug‘urta qilishdan tashqari);

huquqiy himoya bilan bog‘liq xarajatlarni sug‘urta qilish (17-klass);

noproporsional qayta sug‘urta qilish shartnomalari (har bir qayta sug‘urtaga qabul qilingan
shartnomalar) bo‘yicha qayta sug‘urta qilish shartnomasining amal qilish doirasiga
tushuvchi zararning sodir bo‘lishi borasida sug‘urtalovchi tomonidan amalga oshiriladigan har bir
sug‘urta to‘lovidagi oldindan o‘rnatilgan ulushni qoplash bo‘yicha qayta sug‘urtalovchining
majburiyati paydo bo‘luvchi shartlarga ega bo‘lgan qayta sug‘urta qilish shartnomalaridan tashqari
qayta sug‘urta qilish shartnomalari);

b) 2-hisob guruhi:

kreditlarni sug‘urta qilish (14-klass);
kafillikni (kafolatlarni) sug‘urta qilish (15-klass);
boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug‘urta qilish (16-klass) (qishloq xo‘jaligi
ekinlarining hosilini sug‘urta qilishdan tashqari);

qarz oluvchilarning kreditni to‘lamaganligi uchun javobgarligini sug‘urta qilish (13 klass);

v) 3-hisob guruhi:

sug‘urta shartnomasining amal qilish muddati boshlanishining va tugashining noaniq
(“ochiq”) sanalariga ega bo‘lgan sug‘urta shartnomalarini tuzish imkoniyatini nazarda tutuvchi
sug‘urta turlari;

g) 4-hisob guruhi:

qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosilini sug‘urta qilish (16 klass).

Sug‘urta zaxiralalarini hisoblash uchun sug‘urtalovchi mazkur bandda nazarda tutilgan har bir
hisob guruhi ichida sug‘urta shartnomasining shartlari, sug‘urta obyektlari, sug‘urta obyektlarining
joylashuvi va sug‘urta tavakkalchiliklari ro‘yxatiga bog‘liq holda qo‘srimcha hisob guruhlarini
kiritishi mumkin.

Har bir qayta sug‘urtaga qabul qilingan shartnomalar (shartnomalar) bo‘yicha qayta sug‘urta
qilish shartnomasining amal qilish doirasiga tushuvchi zararning sodir bo‘lishi borasidagi
sug‘urtalovchi tomonidan amalga oshiriladigan har bir sug‘urta to‘lovidagi oldindan o‘rnatilgan
ulushni qoplash bo‘yicha qayta sug‘urtalovchining majburiyati paydo bo‘luvchi shartlarga ega
bo‘lgan proporsional qayta sug‘urta qilish shartnomalari tegishli sug‘urta shartnomalariga oid hisob
guruhlariga kiritiladi.

11. Sug‘urtalovchi tomonidan mazkur Nizomning **10-bandida** belgilangan guruhanish
bo‘yicha bir nechta hisob guruhlariga taalluqli bo‘lgan shartnomalar tuzilgan taqdirda, sug‘urta
zaxiralalarini hisoblash maqsadida ko‘rsatilgan shartnomaning muayyan hisob guruhiga to‘g‘ri
keluvchi har bir qismi tegishli hisob guruhiga taalluqli alohida shartli shartnomalariga sifatida hisobga
olinadi.

12. Shartnomaning kuchga kirish sanasi (sug‘urtaning amal qilishining boshlanish sanasi)
shartnomalar bo‘yicha sug‘urta mukofotini (badallarini) hisoblash sanasidan kechroq bo‘lsa va sug‘urta
zaxiralalarining hisob-kitobi shartnomaning kuchga kirish sanasiga (sug‘urtaning amal qilishining
boshlanish sanasiga) qadar amalga oshirilgan taqdirda, ishlab topilmagan mukofot zaxirasini

hisoblash maqsadida ishlab topilmagan mukofot zaxirasi shartnomasi bo'yicha hisoblangan sug'urta mukofoti (badallari) (sug'urta brutto-mukofoti) miqdoriga teng deb qabul qilinadi.

13. Birinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha alohida "pro rata temporis" usuli — ishlab topilmagan mukofotni hisobot sanasiga sug'urta shartnomasining tugamagan amal qilish muddatiga proporsional holda hisoblash orqali hisoblanadi. Har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot hisob-kitob uchun qabul qilingan bazaviy sug'urta mukofotining hisobot sanasiga sug'urta shartnomasining tugamagan amal qilish muddatining (kunlarda) sug'urta shartnomasining butun amal qilish muddati (kunlarda) nisbatiga ko'paytmasi sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\frac{U_{mi}}{E_{mi}} = \frac{T_i - M_i}{T_i},$$

bu yerda:

Imi — i-shartnomasi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot;

Bmi — i-shartnomasi bo'yicha bazaviy sug'urta mukofot;

Ti — i-shartnomaning kunlardagi amal qilish muddati;

Mi — i-shartnomaning kuchga kirishidan boshlab hisobot sanasigacha bo'lgan kunlar soni.

Butun hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot zaxirasi har bir shartnomasi bo'yicha "pro rata temporis" usuli orqali hisoblangan ishlab topilmagan mukofotlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Birinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot zaxirasi "1/24" usuli bo'yicha ham hisoblanishi mumkin.

14. Ishlab topilmagan mukofotni (ishlab topilmagan mukofot zaxirasini) "1/24" usuli orqali hisoblash uchun bitta hisob guruhi taalluqli bo'lgan shartnomalar kichik guruhlarga ajratiladi. Kichik guruhlarga amal qilish muddati (oylarda) bir xil bo'lgan va amal qilishining boshlanish sanasi bir xil oylarga to'g'ri keluvchi shartnomalar kiritiladi.

Kichik guruhgaga kiruvchi shartnomalar bo'yicha bazaviy sug'urta mukofotining umumiy summasi kichik guruhgaga kiruvchi har bir shartnomasi bo'yicha hisoblangan bazaviy sug'urta mukofotlarini qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Ishlab topilmagan mukofot (ishlab topilmagan mukofot zaxirasi) "1/24" usuli bo'yicha hisoblanganda, quyidagi shartlar qo'llaniladi:

sug'urta shartnomasi amal qilishining boshlanish sanasi deb oyning o'rtasi qabul qilinadi;

sug'urta shartnomasining oylarning butun sonlariga teng bo'lmaning amal qilish muddati oylarning eng yaqin katta butun soniga teng deb qabul qilinadi.

Ishlab topilmagan mukofot (ishlab topilmagan mukofot zaxirasi) har bir kichik guruhi bo'yicha bazaviy sug'urta mukofotlari umumiy summasini ishlab topilmagan mukofot zaxirasi miqdorini hisoblash koeffitsiyentlariga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Har bir kichik guruhi uchun koeffitsiyent kichik guruhlarga kiruvchi shartnomalarning hisobot sanasiga tugamagan amal qilish muddatining (yarim oylarda) kichik guruhgaga kiruvchi shartnomalar amal qilishining umumiy muddatiga (yarim oylarda) nisbati sifatida aniqlanadi.

Butun hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot zaxirasi "1/24" usuli orqali har bir kichik guruhi bo'yicha hisoblangan ishlab topilmagan mukofotlarni (ishlab topilmagan mukofot zaxiralarni) qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

15. Ikkinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot sug'urta shartnomasining amal qilish muddati to'liq tugagunga qadar bazaviy sug'urta mukofoti miqdorida har bir shartnomasi bo'yicha aniqlanadi.

16. Uchinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot hisobot sanasiga bazaviy sug'urta mukofotining 40 foizi miqdorida har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha aniqlanadi.

17. To'rtinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot sug'urta shartnomasining amal qilish muddati to'liq tugagunga qadar bazaviy sug'urta mukofotining 75 foizi miqdorida har bir shartnomasi bo'yicha aniqlanadi.

18. Mukofotlar zaxirasi keyingi hisobot davrlarida ro'y berishi mumkin bo'lgan hayotni sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha kelgusidagi to'lovlarni ta'minlashga oid majburiyatlarini

bajarish va sug‘urta polisining kafolati asosida qarz berish uchun mo‘ljallangan. Mukofotlar zaxirasi quyidagilardan iborat:

hayotni sug‘urta qilishning jamg‘arilib boruvchi turlari bo‘yicha zaxira (HZ);

hayotni sug‘urta qilishning boshqa turlari (jamg‘arilib boruvchi turlaridan tashqari) bo‘yicha zaxira (HZ).

Mukofotlar zaxirasi hayotni sug‘urta qilishning jamg‘arilib boruvchi turlari bo‘yicha zaxira va hayotni sug‘urta qilishning boshqa turlari (jamg‘arilib boruvchi turlaridan tashqari) bo‘yicha zaxirani qo‘sish yo‘li bilan aniqlanadi.

19. Hayotni sug‘urta qilishning jamg‘arilib boruvchi turlari bo‘yicha zaxira sug‘urta shartnomasining amal qilish muddati to‘liq tugagunga qadar yoki sug‘urta hodisasi yuz bergunga qadar bazaviy sug‘urta mukofotining 92 foizidan va uni joylashtirishdan (unga hisoblangan foizlardan) olinadigan investitsiya daromadining 50 foizidan kam bo‘lmasligi hajmda har bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha hisoblanadi. Bunda HZning olingan hajmi sug‘urta shartnomasi bilan belgilangan qaytarib sotib olish summasidan (sug‘urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilinganda kafolatlangan) kam bo‘lmasligi lozim.

Umumiy holda HZ har bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha hisoblangan HZlarni qo‘sish yo‘li bilan aniqlanadi.

20. Hayotni sug‘urta qilishning boshqa turlari (jamg‘arilib boruvchi turlaridan tashqari) bo‘yicha zaxira har bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha “pro rata temporis” yoki “1/24” usuli bilan hisoblanadi.

Umumiy holda HZ har bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha hisoblangan HZlarni qo‘sish yo‘li bilan aniqlanadi.

21. Zararlar zaxirasi o‘z ichiga xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasini va sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasini oladi.

22. Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi sug‘urta to‘lovlarini amalgamashirish, jumladan hisobot davrida yoki unga qadar bo‘lgan davrlarda sodir bo‘lganligi haqida qonun yoki shartnomada belgilangan tartibda sug‘urtalovchiga xabar qilingan sug‘urta hodisalari munosabati bilan yuzaga kelgan sug‘urta qildiruvchining mulkiy manfaatlariga yetkazilgan zararni (ziyonni) miqdorini baholash va kamaytirish bilan bog‘liq ekspert, maslahat yoki boshqa xizmatlarga haq to‘lash uchun sug‘urtalovchiga zarur bo‘lgan pul mablag‘lari summasini to‘lash bo‘yicha sug‘urtalovchining hisobot sanasiga bajarilmagan yoki to‘liq bajarilmagan majburiyatlarining baholanishi hisoblanadi.

XZZ har bir bartaraf etilmagan da’vo bo‘yicha aniqlanadi. Agarda zarar to‘g‘risida xabar qilingan bo‘lib, uning miqdori aniqlanmagan bo‘lsa, hisob-kitob uchun sug‘urta pulidan katta bo‘lmasligi eng yuqori ehtimoli kutilgan zarar miqdori olinadi.

XZZ xabar qilingan zararlarni hisobga olish jurnalida ro‘yxatga olingan hisobot davridagi xabar qilingan zararlar summasining hisobot davridan oldingi davrlarda bartaraf etilmagan zararlar summasiga qo‘shilgan va hisobot davrida to‘langan zararlar summasiga kamaytirilgan, hamda hisobot davrida bartaraf etilmagan da‘volar summasidan uch foizgacha miqdorda zararni bartaraf etish bo‘yicha xarajatlar qo‘shilgan summaga mos keladi.

23. Sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi sug‘urta to‘lovlarini amalgamashirish, jumladan hisobot davrida yoki unga qadar bo‘lgan davrlarda sodir bo‘lganligi haqida qonun yoki shartnomada belgilangan tartibda sug‘urtalovchiga hisobot davrida yoki unga qadar bo‘lgan davrlarda xabar qilinmagan sug‘urta hodisalari munosabati bilan yuzaga kelgan, o‘z ichiga zararlarni bartaraf etish bo‘yicha xarajatlarni olgan, sug‘urtalovchining hisobot sanasiga majburiyatlarining baholanishi hisoblanadi.

Sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi har bir sug‘urta turi bo‘yicha alohida, sug‘urtalovchining ushbu sug‘urta turi bo‘yicha sug‘urta to‘lovlarini amalgamashirish yuzasidan yig‘ilgan statistikani inobatga olgan holda, hisoblanadi.

Umumiy holda, SXZZ har bir sug‘urta turi bo‘yicha hisoblangan SXZZlarni qo‘sish yo‘li bilan aniqlanadi. Biroq ushbu summa umumiy sug‘urtada (qayta sug‘urta qilishda) har qanday holda

hisobot davriga qadar o'n ikki oy mobaynida umumiy sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomalari bo'yicha bazaviy sug'urta mukofoti summasining 10 foizidan kam bo'lmasligi lozim.

24. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi (FJMS BZ) keyingi yillarda sug'urtaning mazkur turi bo'yicha sug'urta to'lovlarni amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo'ljallangan.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasining hisob-kitobi quyidagi ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi:

transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha hisobot davrida hisoblangan sug'urta brutto-mukofoti;

transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha hisobot davrida amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari;

transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni hisobot davrida amalga oshirish xarajatlari (shu jumladan, sug'urta hodisalari sodir bo'lishining oldini olish va ogohlantirish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar);

sug'urtalovchilarining transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha To'lovlarni kafolatlash jamg'armasiga to'laydigan majburiy badallari; boshqa ko'rsatkichlar.

FJMS BZni hisoblash maqsadida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirish xarajatlari miqdori (shu jumladan, sug'urta hodisalari sodir bo'lishining oldini olish va ogohlantirish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar) hisobot davrida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha hisoblangan sug'urta brutto-mukofotining 25 foizi miqdorida o'rnatiladi.

FJMS BZning hisob-kitobi brutto-sug'urtalash ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda (qayta sug'urtalovchilar ishtirokini (ulushini) hisobga olmagan holda) amalga oshiriladi.

25. Sug'urtalovchi transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasini quyidagi tartibda hisoblaydi.

FJMS BZ miqdorini hisob-kitob qilish bazasi sifatida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirishdan hosil bo'lgan moliyaviy natija miqdori qabul qilinadi.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirishdan hosil bo'lgan moliyaviy natija hisobot davridagi sug'urtaning mazkur turi bo'yicha daromadlar miqdori va hisobot davridagi sug'urtaning mazkur turi bo'yicha xarajatlar miqdori o'rtaqidagi farq sifatida aniqlanadi.

Hisobot davrida transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha daromadlar quyidagilarning yig'indisi sifatida aniqlanadi:

hisobot davrida hisoblangan sug'urta brutto-mukofotlari;

ishlab topilmagan mukofot zaxirasi, xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi va sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasining hisobot davrida kamayish tomonga o'zgarishi.

Hisobot davrida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha xarajatlar quyidagilarning yig'indisi sifatida aniqlanadi:

hisobot davrida sug'urta shartnomalarining muddatidan oldin tugatilishi (shartlarining o'zgartirilishi) munosabati bilan sug'urta qildiruvchilarga qaytarilgan sug'urta mukofotlari (badallari);

hisobot davrida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirish xarajatlari (shu jumladan, sug'urta hodisalari sodir bo'lishining oldini olish va ogohlantirish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar);

quyidagilardan iborat bo'lgan hisobot davrida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha joriy sug'urta to'lovlarni ta'minlash xarajatlari:

a) sug‘urtalovchilarning To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasiga hisobot davri uchun to‘laydigan majburiy badallari;

b) ishlab topilmagan mukofot zaxirasi, xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi va sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasining hisobot davrida ko‘payish tomonga o‘zgarishi;

v) hisobot davrida amalga oshirilgan sug‘urta to‘lovlari.

Agar transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi farq ko‘rsatilgan daromadlarning 5 foizidan ortiq bo‘lsa, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi hisobot davri oxiriga ko‘rsatilgan ortiq summaga ko‘payadi.

Agar transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha xarajatlar summasi daromadlar summasidan ortib ketsa, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi hisobot davri oxiriga xarajatlarning daromadlardan ortgan summasiga kamaytiriladi.

Agar sug‘urtalovchi hisobot davri boshiga qadar transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasini hisoblamagan bo‘lsa, mazkur zaxira hisobot davri boshiga nolga teng deb qabul qilinadi.

Agar transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi hisob-kitoblar natijasida manfiy qiymatga ega bo‘lsa, mazkur zaxira nolga teng deb qabul qilinadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Agar transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi miqdori hisob-kitoblar natijasida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha hisobot sanasiga qadar o‘ttiz olti oy davrida amalga oshirilgan sug‘urta to‘lovlari summasidan ortiq bo‘lsa, ko‘rsatilgan zaxira hisobot sanasiga transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha hisobot sanasiga qadar o‘ttiz olti oy davrida amalga oshirilgan sug‘urta to‘lovlari summasiga teng deb qabul qilinadi, va ko‘rsatilgan ortiq summa soliqlar va yig‘imlar to‘langandan keyin sug‘urtalovchining ustav fondiga kapitallashtiriladi.

(25-bandning o‘n sakkizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2021-yil 29-martdagi 18-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1882-6, 19.04.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2021-y., 10/21/1882-6/0346сон)

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasini hisob-kitob qilish uchun mazkur Nizomning **1-ilovasida** keltirilgan jadvallardan foydalaniladi.

Oldingi tahrirga qarang.

25-1. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi (IFJMS BZ) keyingi yillarda sug‘urtaning mazkur turi bo‘yicha sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo‘ljallangan.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasining hisob-kitobi quyidagi ko‘rsatkichlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi:

ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha hisobot davrida hisoblangan sug‘urta brutto-mukofoti;

ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha hisobot davrida amalga oshirilgan sug‘urta to‘lovlari;

ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishni hisobot davrida amalga oshirish xarajatlari (shu jumladan, sug‘urta hodisalari sodir bo‘lishining oldini olish va ogohlantirish bo‘yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar);

boshqa ko‘rsatkichlar.

IFJMS BZni hisoblash maqsadida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishni amalga oshirish xarajatlari miqdori (shu jumladan, sug‘urta hodisalari sodir

bo‘lishining oldini olish va ogohlantirish bo‘yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar) hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha hisoblangan sug‘urta brutto-mukofotining 30 foizi miqdorida o‘rnataladi.

IFJMS BZning hisob-kitobi brutto-sug‘urtalash ko‘rsatkichlaridan kelib chiqqan holda (qayta sug‘urtalovchilar ishtirokini (ulushini) hisobga olmagan holda) amalga oshiriladi.

25-2. Sug‘urtalovchi ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasini quyidagi tartibda hisoblaydi.

IFJMS BZ miqdorini hisob-kitob qilish bazasi sifatida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishni amalga oshirishdan hosil bo‘lgan moliyaviy natija miqdori qabul qilinadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishni amalga oshirishdan hosil bo‘lgan moliyaviy natija hisobot davridagi sug‘urtaning mazkur turi bo‘yicha daromadlar miqdori va hisobot davridagi sug‘urtaning mazkur turi bo‘yicha xarajatlar miqdori o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha daromadlar quyidagilarning yig‘indisi sifatida aniqlanadi:

hisobot davrida hisoblangan sug‘urta brutto-mukofotlari;

ishlab topilmagan mukofot zaxirasi, xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi va sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasining hisobot davrida kamayish tomonga o‘zgarishi.

Hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha xarajatlar quyidagilarning yig‘indisi sifatida aniqlanadi:

hisobot davrida sug‘urta shartnomalarining muddatidan oldin tugatilishi (shartlarining o‘zgartirilishi) munosabati bilan sug‘urta qildiruvchilarga qaytarilgan sug‘urta mukofotlari (badallari);

hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishni amalga oshirish xarajatlari (shu jumladan, sug‘urta hodisalari sodir bo‘lishining oldini olish va ogohlantirish bo‘yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar);

quyidagilardan iborat bo‘lgan hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha joriy sug‘urta to‘lovlarini ta‘minlash xarajatlari:

ishlab topilmagan mukofot zaxirasi, xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi va sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasining hisobot davrida ko‘payish tomonga o‘zgarishi;

hisobot davrida amalga oshirilgan sug‘urta to‘lovleri.

Agar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha daromadlar va xarajatlар o‘rtasidagi farq ko‘rsatilgan daromadlarning 5 foizidan ortiq bo‘lsa, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi hisobot davri oxiriga ko‘rsatilgan ortiq summagiga ko‘payadi.

Agar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha xarajatlar summasi daromadlar summasidan ortib ketsa, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi hisobot davri oxiriga xarajatlarning daromadlardan ortgan summasiga kamaytiriladi.

Agar sug‘urtalovchi hisobot davri boshiga qadar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasini hisoblamagan bo‘lsa, mazkur zaxira hisobot davri boshiga nolga teng deb qabul qilinadi.

Agar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi hisob-kitoblar natijasida manfiy qiymatga ega bo‘lsa, mazkur zaxira nolga teng deb qabul qilinadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasini hisob-kitob qilish uchun mazkur Nizomning **2-ilosasida** keltirilgan jadvallardan foydalaniladi.

(25-1 va 25-2-bandlar O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009-yil 24-iyuldagи 74-sonli (ro'yxat raqami 1882-1, 13.08.2009-y.) buyrug'iiga asosan kiritilgan — O'R QHT, 2009-y., 32-33-son, 367-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

25³. Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi (TFJMS BZ) keyingi yillarda sug‘urtaning mazkur turi bo‘yicha sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo‘ljallangan.

Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasining hisob-kitobi quyidagi ko‘rsatkichlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi:

tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha hisobot davrida hisoblangan sug‘urta brutto-mukofoti;

tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha hisobot davrida amalga oshirilgan sug‘urta to‘lovlar;

hisobot davrida tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishni amalgaloshirish xarajatlari (shu jumladan, sug‘urta hodisalari sodir bo‘lishining oldini olish va ogohlantirish bo‘yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar);

boshqa ko‘rsatkichlar.

TFJMS BZni hisoblash maqsadida tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishni amalga oshirish xarajatlari miqdori (shu jumladan, sug‘urta hodisalari sodir bo‘lishining oldini olish va ogohlantirish bo‘yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar) hisobot davrida tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha hisoblangan sug‘urta brutto-mukofotining 30 foizi miqdorida o‘rnataladi.

TFJMS BZning hisob-kitobi brutto-sug‘urtalash ko‘rsatkichlaridan kelib chiqqan holda (qayta sug‘urtalovchilar ishtirokini (ulushini) hisobga olmagan holda) amalga oshiriladi.

25⁴. Sug‘urtalovchi tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasini quyidagi tartibda hisoblaydi.

TFJMS BZ miqdorini hisob-kitob qilish bazasi sifatida tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishni amalga oshirishdan hosil bo‘lgan moliyaviy natija miqdori qabul qilinadi.

Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishni amalga oshirishdan hosil bo‘lgan moliyaviy natija hisobot davridagi sug‘urtaning mazkur turi bo‘yicha daromadlar miqdori va hisobot davridagi sug‘urtaning mazkur turi bo‘yicha xarajatlar miqdori o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Hisobot davrida tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha daromadlar quyidagilarning yig‘indisi sifatida aniqlanadi:

hisobot davrida hisoblangan sug‘urta brutto-mukofotlari;

ishlab topilmagan mukofot zaxirasi, xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi va sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasining hisobot davrida kamayish tomonga o‘zgarishi.

Hisobot davrida tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha xarajatlar quyidagilarning yig‘indisi sifatida aniqlanadi:

hisobot davrida sug'urta shartnomalarining muddatidan oldin tugatilishi (shartlarining o'zgartirilishi) munosabati bilan sug'urta qildiruvchilarga qaytarilgan sug'urta mukofotlari (badallari);

missobut davrida tashuvchining fuqarolik javobgarligini maydury sug'urta qismini amaliga oshirish xarajatlari (shu jumladan, sug'urta hodisalarini sodir bo'lishining oldini olish va ogohlantirish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar);

quyidagilardan iborat bo‘lgan hisobot davrida tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha joriy sug‘urta to‘lovlarini ta’minlash xarajatlari:

ishlab topilmagan mukofot zaxirasi, xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi va sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasining hisobot davrida ko‘payish tomonga o‘zgarishi;

hisobot davrida amalga oshirilgan sug‘urta to‘lovlari.

Agar tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi farq ko‘rsatilgan daromadlarning 5 foizidan ortiq bo‘lsa, tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi hisobot davri oxiriga ko‘rsatilgan ortiq summaga ko‘payadi.

Agar tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha xarajatlar summasi daromadlar summasidan ortib ketsa, tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi hisobot davri oxiriga xarajatlarning daromadlardan ortgan summasiga kamaytiriladi.

Agar sug‘urtalovchi hisobot davri boshiga qadar tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasini hisoblamagan bo‘lsa, mazkur zaxira hisobot davri boshiga nolga teng deb qabul qilinadi.

Agar tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasini hisob-kitoblar natijasida manfiy qiymatga ega bo‘lsa, mazkur zaxira nolga teng deb qabul qilinadi.

Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasini hisob-kitob qilish uchun mazkur Nizomning **2¹-ilovasida** keltirilgan jadvallardan foydalaniladi.

(25³-25⁴-bandlar O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2015-yil 29-oktabrdagi 94-soni buyrug‘iga (ro‘yxat raqami 1882-4, 11.11.2015-y.) asosan kiritilgan — O‘R QHT, 2015-y., 45-son, 580-modda)

26. Oohlantirish chora-tadbirlari zaxirasi (OChZ) baxtsiz hodisalarini, sug‘urta qilingan mulkni yo‘qotish yoki shikastlanishini oohlantirish chora-tadbirlarini moliyalashtirish, shuningdek sug‘urta hodisalarining sodir bo‘lishini oohlantirish va oldini olishga yo‘naltirilgan boshqa chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun mo‘ljallangan.

Oldingi tahrirga qarang.

OChZni shakllantirish va undan foydalanish tartibi sug‘urtalovchi tomonidan tasdiqlanadigan oohlantirish chora-tadbirlari zaxirasi to‘g‘risidagi nizomda belgilanadi.

(26-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2011-yil 14-noyabrdagi 69-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1882-2, 14.12.2011-y.) tahririda — O‘R QHT, 2011-y., 50-son, 532-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Bunda sug‘urtalovchi OChZdan moliyalashtiriladigan oohlantirish chora-tadbirlarining aniq ro‘yxatini belgilashi va uni Agentlikka kelishish uchun taqdim etishi lozim.

(26-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2021-yil 29-martdagi 18-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1882-6, 19.04.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2021-y., 10/21/1882-6/0346-son)

OChZ sug‘urta shartnomalari bo‘yicha hisobot davrida hisoblangan sug‘urta brutto-mukofotlaridan ajratmalar yo‘li bilan shakllantiriladi.

OChZga ajratmalar miqdori, tarif stavkasi tarkibida ushbu maqsadlarga ko‘zda tutilgan foizlardan kelib chiqib, biroq sug‘urta shartnomalari bo‘yicha hisobot davrida hisoblangan sug‘urta brutto-mukofotining 10 foizidan ko‘p bo‘lmagan holda (qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari), oohlantirish chora-tadbirlari zaxirasi to‘g‘risidagi nizomda belgilanadi.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha oohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga (FJMS OChZ) ajratmalar miqdori, hisobot davrida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha hisoblangan sug‘urta brutto-mukofotining 5 foizi miqdorida belgilanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha oohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga (IFJMS OChZ) ajratmalar miqdori, hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha hisoblangan sug‘urta brutto-mukofotining 5 foizi miqdorida belgilanadi.

(26-band O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009-yil 24-iyuldagagi 74-sonli (ro'yxat raqami 1882-1, 13.08.2009-y.) buyrug'iiga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2009-y., 32-33-son, 367-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga (TFJMS OChZ) ajratmalar miqdori, hisobot davrida tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha hisoblangan sug'urta bruttomukofotining 5 foizi miqdorida belgilanadi.

(26-band O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2015-yil 29-oktabrdagi 94-sonli buyrug'iiga (ro'yxat raqami 1882-4, 11.11.2015-y.) asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2015-y., 45-son, 580-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

27. OChZ har bir hisobot sanasiga hisoblanadi. OChZ miqdori hisobot sanasining boshiga bo'lган OChZ miqdoriga oshirilgan va hisobot davrida ogohlantirish chora-tadbirlariga sarflangan mablag'lar summasiga kamaytirilgan hisobot davrida ushbu zaxiraga qilingan ajratmalar miqdoriga teng bo'ladi (FJMS OChZ, IFJMS OChZ va TFJMS OChZ bundan mustasno). Biroq aniqlangan OChZning miqdori (FJMS OChZni, IFJMS OChZni va TFJMS OChZni hisobga olmagan holdagi, hisobot sanasiga bo'lган OChZ miqdori) har qanday holatda ham umumiy sug'urta shartnomalari bo'yicha (transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomalarini, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomalarini va tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomalarini hisobga olmagan holda) yalpi hisoblangan sug'urta mukofotining 10 foizidan ko'p bo'lmasligi lozim;

(27-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2015-yil 29-oktabrdagi 94-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1882-4, 11.11.2015-y.) tahririda — O'R QHT, 2015-y., 45-son, 580-modda)

FJMS OChZ har bir hisobot sanasiga alohida hisoblanadi. FJMS OChZ miqdori hisobot sanasining boshiga bo'lган FJMS OChZ miqdoriga oshirilgan va hisobot davrida ogohlantirish chora-tadbirlariga sarflangan mablag'lar summasiga kamaytirilgan hisobot davrida ushbu zaxiraga qilingan ajratmalar miqdoriga teng bo'ladi.

IFJMS OChZ har bir hisobot sanasiga alohida hisoblanadi. IFJMS OChZ miqdori hisobot sanasining boshiga bo'lган IFJMS OChZ miqdoriga oshirilgan va hisobot davrida ogohlantirish chora-tadbirlariga sarflangan mablag'lar summasiga kamaytirilgan hisobot davrida ushbu zaxiraga qilingan ajratmalar miqdoriga teng bo'ladi.

(27-band O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009-yil 24-iyuldagagi 74-sonli (ro'yxat raqami 1882-1, 13.08.2009-y.) buyrug'i tahririda — O'R QHT, 2009-y., 32-33-son, 367-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

TFJMS OChZ har bir hisobot sanasiga alohida hisoblanadi. TFJMS OChZ miqdori hisobot sanasining boshiga bo'lган TFJMS OChZ miqdoriga oshirilgan va hisobot davrida ogohlantirish chora-tadbirlariga sarflangan mablag'lar summasiga kamaytirilgan hisobot davrida ushbu zaxiraga qilingan ajratmalar miqdoriga teng bo'ladi.

(27-band O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2015-yil 29-oktabrdagi 94-sonli buyrug'iiga (ro'yxat raqami 1882-4, 11.11.2015-y.) asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2015-y., 45-son, 580-modda)

28. Falokatlar zaxirasi (FZ), ko'p sonli sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'lovlarini amalga oshirish zaruratini keltirib chiqargan yengib bo'lmas kuch yoki yirik miqyosdagi avariya oqibati hisoblangan, favqulodda yetkazilgan ziyonni qoplashga mo'ljallangan. FZ shartlarida yengib bo'lmas kuch yoki yirik miqyosdagi avariya oqibatida yetkazilgan ziyonni qoplash munosabati bilan sug'urtalovching sug'urta to'lovini amalga oshirishi majburiyatini ko'zda tutuvchi sug'urta turlari bo'yicha shakllantiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Falokatlar zaxirasini shakllantirish va undan foydalanish tartibi, shartlari sug'urtalovchi tomonidan tasdiqlanadigan falokatlar zaxirasi to'g'risidagi nizomda belgilanadi.

(28-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2011-yil 14-noyabrdagi 69-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1882-2, 14.12.2011y.) tahririda — O'R QHT, 2011-y., 50-son, 532-modda)

29. Zararlilikning tebranishi zaxirasi (ZTZ), sug'urta turi bo'yicha sug'urta tarifining netto-stavkasini hisoblash uchun asos bo'lgan kutilayotgan zararlilik darajasidan hisobot davridagi zararlilik darajasi yuqori bo'lgan holatda, sug'urtalovchining sug'urta to'lovlari amalga oshirish xarajatlarini kompensatsiya qilishga mo'ljallangan.

Zararlilikning tebranishi zaxirasining miqdori yalpi hisoblangan sug'urta mukofotining 10 foizidan oshmasligi lozim.

Oldingi tahrirga qarang.

ZTZni shakllantirish va undan foydalanish tartibi, shartlari sug'urtalovchi tomonidan tasdiqlanadigan zararlilikning tebranishi zaxirasi to'g'risidagi nizomda belgilanadi.

(29-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2011-yil 14-noyabrdagi 69-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1882-2, 14.12.2011y.) tahririda — O'R QHT, 2011-y., 50-son, 532-modda)

30. Aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasi (ANZ) faqat hayotni sug'urta qilish sohasida faoliyat yuritadigan sug'urtalovchi tomonidan tashkil etilishi mumkin va mukofotlar zaxirasining 20 foizidan ortiq bo'lmasligi lozim.

Oldingi tahrirga qarang.

ANZni shakllantirish va undan foydalanish tartibi, shartlari sug'urtalovchi tomonidan tasdiqlanadigan aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasi to'g'risidagi nizomda belgilanadi.

(30-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2011-yil 14-noyabrdagi 69-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1882-2, 14.12.2011y.) tahririda — O'R QHT, 2011-y., 50-son, 532-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

31. O'zida majburiyatlarni aks ettirmagan, biroq sug'urta faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa zaxiralar sug'urtalovchi tomonidan bunday zaxirani shakllantirish va undan foydalanish tartibi, shartlarini nazarda tutuvchi tegishli zaxira to'g'risidagi nizom sug'urtalovchi tomonidan tasdiqlanganidan keyingina tashkil etilishi mumkin.

(31-band O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2011-yil 14-noyabrdagi 69-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1882-2, 14.12.2011y.) tahririda — O'R QHT, 2011-y., 50-son, 532-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

32. Sug'urtalovchilar sug'urta zaxiralaridagi qayta sug'urtalovchilar ishtirokining ulushini (FJMS BZ, IFJMS BZ va TFJMS BZdan tashqari) sug'urta zaxiralarini hisob-kitob qilish bilan bir vaqtda hisoblaydilar.

(32-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2015-yil 29-oktabrdagi 94-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1882-4, 11.11.2015-y.) tahririda — O'R QHT, 2015-y., 45-son, 580-modda)

Qayta sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchilarining) sug'urta zaxiralaridagi ulushi har bir shartnoma (shartnomalar guruhi) bo'yicha qayta sug'urta qilish shartnomasi (shartnomalari) shartlariga muvofiq holda aniqlanadi.

Qayta sug'urtalovchining ishlab topilmagan mukofot zaxirasi va sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasidagi ulushi qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha olingan komission mukofotni chegirgan holdagi qayta sug'urta qilishga berilgan sug'urta mukofoti summasining sug'urtalovchi tomonidan qayta sug'urta qilishga berilgan sug'urta shartnomasi bo'yicha hisoblangan bazaviy sug'urta mukofotiga nisbatiga proporsional ravishda aniqlanadi va quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\frac{1}{\sum_{i=1}^n \frac{1}{x_i}} \cdot \frac{1}{\sum_{i=1}^n \frac{1}{y_i}}$$

bu yerda:

QSu — qayta sug'urtalovchining ishlab topilmagan mukofot zaxirasi yoki sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasidagi ulushi;

Bqsm — qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha brutto qayta sug'urta qilish mukofoti;

Kmo — qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha olingan komission mukofot;

Shz — sug‘urtalovchi tomonidan mazkur bobga muvofiq shakllantirilgan ishlab topilmagan mukofot zaxirasi yoki sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi;

Bsm — sug‘urta shartnomasi bo‘yicha bazaviy sug‘urta mukofoti.

Qayta sug‘urtalovchining xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasidagi ulushi qayta sug‘urta qilish shartnomasining shartlari bo‘yicha qayta sug‘urtalovchi tomonidan qoplanishi lozim bo‘lgan zararlar miqdoridagi ulushi miqdorida belgilanadi.

III. Ajratilgan aktivlar

33. Sug‘urtalovchi sug‘urta zaxiralari mablag‘lari qiymatiga ekvivalent bo‘lgan summadagi aktivlarni ajratishi shart. Ajratilgan aktivlar, ularni ajratish vaqtida sug‘urtalovchining hisob va hisobot registrlarida aniq belgilangan bo‘lishi shart.

Ajratilgan aktivlarning umumiy qiymati sug‘urta zaxiralari mablag‘larining jami miqdoridan kam bo‘lmasligi lozim. Ajratilgan aktivlar qiymati sifatida ularning balans qiymati tushuniladi.

34. Ajratilgan aktivlar diversifikatsiya, qaytarilish, foydalilik va likvidlik talablariga javob berishi lozim.

35. Ajratilgan aktivlar mablag‘lari sug‘urtalovchi tomonidan faqat tegishli sug‘urta zaxiralaring shakllantirish maqsadiga muvofiq holda ishlatilishi mumkin. Ajratilgan aktivlar garov predmeti yoki kreditorga kafilning majburiyatlari bo‘yicha pul mablag‘larini to‘lash manbai sifatida xizmat qila olmaydi.

36. Sug‘urta zaxiralari xorijiy valyutada belgilangan holatlarda, aktivlar sug‘urta zaxiralari belgilangan valyutaga ekvivalent valyutada yoki erkin konvertatsiya qilinadigan valyutada ajratiladi.

37. Ajratilgan aktivlar quyidagi aktivlardan iborat bo‘lishi mumkin emas:

sug‘urtalovchining ta’sischilar, aksiyadorlari va xodimlariga berilgan qarzlar, shuningdek ular bo‘yicha jamg‘arilgan foizlar;

debitor — bog‘liq shaxslarning qarzlar;

sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasida belgilangan to‘lov sanasidan uch oydan ko‘p muddat mobaynida sug‘urta qildiruvchilar (qayta sug‘urta qildiruvchilar) tomonidan to‘lanmagan sug‘urta mukofotlari;

Oldingi tahrirga qarang.

soliq va yig‘imlar bo‘yicha debtorlik qarzlar;

(37-bandning beshinchи xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2021-yil 29-martdagи 18-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1882-6, 19.04.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2021-y., 10/21/1882-6/0346-son)

kafolat bo‘yicha summalar;

majburiyat predmeti bo‘lgan aktivlar (qabul qilingan majburiyatlar doirasida).

IV. Sug‘urta zaxiralari joylashtirish tartibiga talablar

38. Ajratilgan aktivlarning 70% dan kam bo‘lмаган qismi quyidagilardan (yoki ularning ba’zilaridan) tarkib topishi lozim:

O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlari;

bank omonatlari (depozitlar);

kassadagi va/yoki hisob (valyuta) raqamlardagi va o‘zga bank raqamlardagi pul mablag‘lari, shuningdek ularga tenglashtirilgan mablag‘lar;

Oldingi tahrirga qarang.

xorijiy davlatlarning davlat qimmatli qog‘ozlari (Agentlik bilan kelishgan holda);

(38-bandning beshinchи xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2021-yil 29-martdagи 18-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1882-6, 19.04.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2021-y., 10/21/1882-6/0346-son)

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi hududida chiqarish va muomalaga kiritishga ruxsat berilgan, yoki tegishli vakolatli organ tomonidan berilgan qimmatli qog‘ozlar bozorida savdoni tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun

litsenziyaga (ruxsatnomaga) ega bo‘lgan xorijiy emitentlar tomonidan chiqarilgan, hamda qimmatli qog‘ozlar bozorida muomalaga qo‘ylgan qimmatli qog‘ozlar.

(38-bandning oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)

39. Sug‘urtalovchining boshqaruvi organlari ushbu Nizomga asosan ajratilgan aktivlarning hisobot sanasiga mavjudligini va qiymatini tekshirib ko‘rishi, shuningdek aktivlar ajratilgan sug‘urta zaxiralari summasi bilan ularni taqqoslab ko‘rishi shart va bunday huquqqa har qanday boshqa vaqtida ham ega.

40. Ajratilgan aktivlar qiymati sug‘urta zaxiralari summasidan kam bo‘lgan holatda, sug‘urtalovchi ajratilgan aktivlar qiymatini sug‘urta zaxiralari summasidan kam bo‘limgan qiymatga oshirish va sug‘urta zaxiralari hajmining 105 foizidan ko‘p bo‘limgan miqdorda ko‘paytirish uchun yetarli miqdordagi qo‘sishimcha aktivlarni ajratishi shart.

41. Ajratilgan aktivlar summasi sug‘urta zaxiralari summasining 105 foizidan ortiq bo‘lgan holatda, sug‘urtalovchi ajratilgan aktivlar qiymati sug‘urta zaxiralari miqdoridan kam bo‘limgan va sug‘urta zaxiralari miqdorining 105 foizidan ko‘p bo‘limgan summagacha qisqargunga qadar, ajratilgan aktivlarning ortiqcha bo‘lgan qismini ajratilmagan aktivlarga o‘tkazishi shart.

V. Yakunlovchi qoidalar

Oldingi tahrirga qarang.

42. Sug‘urtalovchilar har chorakda chorak o‘tgandan keyingi oyning 25 sanasigacha moliyaviy hisobot tarkibida (buxgalteriya balansi — 1-shakl, moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot — 2-shakl) mazkur Nizomning 1, 2, 2¹, 3 va 4-ilovalariga muvofiq shakllarda sug‘urta zaxiralari to‘g‘risidagi hisobotlarni Agentlikka taqdim etadilar. Bunda yil yakuni bo‘yicha moliyaviy hisobot tarkibidagi sug‘urta zaxiralari to‘g‘risidagi hisobotlar hisobot yildan keyingi yilning 15-fevralidan kechikmagan holda taqdim etiladi (xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar bundan mustasno). Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar yil yakuni bo‘yicha moliyaviy hisobot tarkibidagi sug‘urta zaxiralari to‘g‘risidagi hisobotlarni hisobot yildan keyingi yilning 25-martidan kechikmagan holda taqdim etadilar.

(42-band O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2021-yil 29-martdagi 18-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1882-6, 19.04.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2021-y., 10/21/1882-6/0346-son)

Oldingi tahrirga qarang.

43. Mazkur Nizom bilan o‘rnatilgan sug‘urta zaxiralarni hisoblash uslubi hamda shakllantirish va joylashtirish tartibi talablari buzilgan taqdirda, Agentlik sug‘urtalovchiga yo‘l qo‘ylgan kamchiliklarni eng qisqa, ammo sug‘urtalovchi ko‘rsatmani olgan sanadan boshlab bir oydan ko‘p bo‘limgan muddatda bartaraf etishi to‘g‘risida ko‘rsatma beradi.

Kamchiliklar belgilangan muddatda bartaraf etilgandan so‘ng uch kun ichida, sug‘urtalovchi Agentlikka tegishli hisob-kitoblar va kamchiliklarni bartaraf etilganligi to‘g‘risida ma’lumotlarni (hisobotlarni) taqdim etishi shart.

(43-band O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2021-yil 29-martdagi 18-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1882-6, 19.04.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2021-y., 10/21/1882-6/0346-son)

Oldingi tahrirga qarang.

44. Agentlik sug‘urtalovchi tomonidan qabul qilingan texnik zaxiralarning tarkibini va hisoblash usullarini o‘zgartirish borasida ko‘rsatma berish, shuningdek Agentlikka sug‘urta zaxiralari to‘g‘risidagi axborotni taqdim etishning boshqa tartibini o‘rnatish huquqiga ega. Zarur holda, Agentlik yuzaga kelgan holat sabablarini aniqlash maqsadida sug‘urtalovchiga o‘zining vakilini yo‘llaydi, shuningdek amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq holda sug‘urtalovchi operatsiyalarining yoppasiga yoki tanlov asosida tekshiruvini amalga oshiradi.

(44-band O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)

Oldingi tahrirga qarang.

45. Sug‘urtalovchi tomonidan mazkur Nizomda o‘rnatilgan talablarga rioya qilinmagan, belgilangan muddatda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish to‘g‘risidagi Agentlik ko‘rsatmasini bajarmagan taqdirda, sug‘urtalovchiga qonunchilik hujjalari muvofiq choralar ko‘riladi.

(45-band O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)

Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risidagi Nizomga
1-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

1-jadval*.

ning

(sug‘urtalovchining to‘liq nomi)

20__ y. “__” _____ holatiga

**transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha
barqarorlashtirish zaxirasini hisoblash maqsadida daromadlar, xarajatlar va moliyaviy**

**natijalarning
HISOB-KITOBI**

Satr t/r	Ko‘rsatkich nomi	Miqdori (ming so‘m)
1.	Hisobot davrida hisoblangan sug‘urta brutto-mukofoti	
2.	Hisobot davrida sug‘urtalovchining to‘lovlarni kafolatlash Jamg‘armasiga majburiy badallari	
3.	Hisobot davri boshiga IMZ	
4.	Hisobot davri oxiriga (hisobot sanasiga) IMZ	
5.	Hisobot davri boshiga XZZ	
6.	Hisobot davri oxiriga (hisobot sanasiga) XZZ	
7.	Hisobot davri boshiga SXZZ	
8.	Hisobot davri oxiriga (hisobot sanasiga) SXZZ	
9.	Hisobot davrida amalga oshirilgan sug‘urta to‘lovleri	
10.	Shartnomalarning muddatidan oldin tugatilishi (shartlarining o‘zgartirilishi) munosabati bilan hisobot davrida sug‘urta qildiruvchilarga qaytarilgan sug‘urta mukofotlari (badallari)	
11.	Hisobot davrida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishni amalga oshirish uchun amalga oshirilgan xarajatlar (shu jumladan, sug‘urta hodisalari sodir bo‘lishining oldini olish va ogohlantirish bo‘yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar) (11 satr = 1 satr x 25%)	
12.	Hisobot davrida IMZ, XZZ va SXZZ o‘zgarishi (12 satr = 4 satr - 3 satr + 6 satr - 5 satr + 8 satr - 7 satr)	
13.	Jami — daromadlar (agar 12 satr >= 0, bu holda 13 satr = 1 satr; agar 12 satr < 0, bu holda 13 satr = 1 satr - 12 satr.)	

14.	Jami — xarajatlar (agar $12 \text{ satr} \geq 0$, bu holda $14 \text{ satr} = 2 \text{ satr} + 9 \text{ satr} + 10 \text{ satr} + 11 \text{ satr} + 12 \text{ satr}$; agar $12 \text{ satr} < 0$, bu holda $14 \text{ satr} = 2 \text{ satr} + 9 \text{ satr} + 10 \text{ satr} + 11 \text{ satr}$)	
15.	Moliyaviy natija (daromadlarning xarajatlardan yoki xarajatlarning daromadlardan yuqoriligi) ($15 \text{ satr} = 13 \text{ satr} - 14 \text{ satr}$)	

2-jadval*. *(sug‘urtalovchining to‘liq nomi)*

ning

(sug‘urtalovchining to‘liq nomi)

20__ y. “___” _____ holatiga

**transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha
barqarorlashtirish zaxirasining
HISOB-KITOBI**

t/r	Ko‘rsatkich nomi	Miqdori (ming so‘m)
1.	Daromadlar (1-jadvalning 13 satri ma’lumotlariga ko‘ra)	
2.	Moliyaviy natija (daromadlarning xarajatlardan yoki xarajatlarning daromadlardan oshganligi) (1-jadvalning 15 satri ma’lumotlariga ko‘ra)	
3.	Hisobot davri boshiga transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi (FJMS BZ)	
4.	FJMS BZ ning ko‘payishi/kamayishi (agar $2 \text{ satr} \geq 0,05 \times 1 \text{ satr}$, bu holda $4 \text{ satr} = 2 \text{ satr} - 0,05 \times 1 \text{ satr}$; agar $0 < 2 \text{ satr} < 0,05 \times 1 \text{ satr}$, bu holda $4 \text{ satr} = 0$; agar $2 \text{ satr} < 0$, bu holda $4 \text{ satr} = 2 \text{ satr}$.)	
5.	Oraliq yakun (3 satr + 4 satr)	
5 ¹ .	Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha hisobot sanasiga qadar o‘ttiz olti oy davrida amalga oshirilgan sug‘urta to‘lovlarini summasi	
6.	Hisobot sanasiga transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi (agar $5\text{-satr} < 0$, bu holda $6\text{-satr} = 0$; agar $5^1\text{-satr} > 5\text{-satr} \geq 0$, bu holda $6\text{-satr} = 5\text{-satr}$; agar $5\text{-satr} > 5^1\text{-satr}$, bu holda $6\text{-satr} = 5^1\text{-satr}$.)	

Mazkur shaklda berilgan ma’lumotlar to‘g‘riligi va to‘liqligini tasdiqlaymiz. Shuningdek, mazkur shakl sug‘urtalovchilarining sug‘urta zaxiralari to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq tuzilganligini tasdiqlaymiz.

Imzolar:

(F.I.Sh.)

(imzo)

(sug‘urtalovchi ijro etuvchi organining rahbari lavozi)

Bosh hisobchi _____ *(F.I.Sh.)* _____ *(imzo)*

* Faqatgina sug‘urtalovchi tomonidan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha faoliyat olib borilgan taqdirda to‘ldiriladi. Mazkur jadvaldagi daromadlar, xarajatlar va moliyaviy natijani aniqlashda qo‘llaniluvchi barcha miqdorlar transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishga taalluqlidir.

(1-ilova O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2021-yil 29-martdagi 18-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1882-6, 19.04.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2021-y., 10/21/1882-6/0346-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risidagi nizomga
2-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

*1-jadval**

ning

(sug‘urtalovchining to‘liq nomi)

20 y. “ ” holatiga
ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy
sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasini
hisoblash maqsadida daromadlar, xarajatlar va moliyaviy natijalarning
HISOB-KITOBI

Satr №	Ko‘rsatkich nomi	Miqdori (ming so‘m)
1.	Hisobot davrida hisoblangan sug‘urta brutto-mukofoti	
2.	Hisobot davri boshiga IMZ	
3.	Hisobot davri oxiriga (hisobot sanasiga) IMZ	
4.	Hisobot davri boshiga XZZ	
5.	Hisobot davri oxiriga (hisobot sanasiga) XZZ	
6.	Hi ? obot davri boshiga SXZZ	
7.	Hisobot davri oxiriga (hisobot sanasiga) SXZZ	
8.	Hisobot davrida amalga oshirilgan sug‘urta to‘lovleri	
9.	Shartnomalarning muddatidan oldin tugatilishi (shartlarining o‘zgartirilishi) munosabati bilan hisobot davrida sug‘urta qildiruvchilarga qaytarilgan sug‘urta mukofotlari (badallari)	
10.	Hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishni amalga oshirish uchun amalga oshirilgan xarajatlar (shu jumladan, sug‘urta hodisalari sodir bo‘lishining oldini olish va ogohlantirish bo‘yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar) (10 satr = 1satr x 30%)	
11.	Hisobot davrida IMZ, XZZ va SXZZ o‘zgarishi (11 satr = 3 satr – 2 satr + 5 satr – 4 satr + 7 satr – 6 satr)	
12.	Jami — daromadlar (agar 11 satr > = 0, bu holda 12 satr = 1 satr; agar 11 satr < 0, bu holda 12 satr = 1 satr – 11 satr)	
13.	Jami — xarajatlar (agar 11 satr > = 0, bu holda 13 satr = 8 satr + 9 satr + 10 satr + 11 satr; agar 11 satr < 0, bu holda 13 satr = 8 satr + 9 satr + 10 satr)	
14.	Moliyaviy natija (daromadlarning xarajatlardan yoki xarajatlarning daromadlardan yuqoriligi) (14 satr = 12 satr – 13 satr)	

*2-jadval**

ning

(sug‘urtalovchining to‘liq nomi)

**20__ y. “__” _____ holatiga
 ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy
 sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasining
 HISOB-KITOBI**

Satr №	Ko‘rsatkich nomi	Miqdori (ming so‘m)
1.	Daromadlar (1-jadvalning 12 satri ma’lumotlariga ko‘ra)	
2.	Moliyaviy natija (daromadlarning xarajatlardan yoki xarajatlarning daromadlardan oshganligi) (1-jadvalning 14 satri ma’lumotlariga ko‘ra)	
3.	Hisobot davri boshiga ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi (IFJMS BZ)	
4.	IFJMS BZ ning ko‘payishi/kamayishi (agar 2 satr \geq 0,05 x 1 satr, bu holda 4 satr = 2 satr – 0,05 x 1 satr; agar 0 $<$ 2 satr $<$ 0,05 x 1 satr, bu holda 4 satr = 0; agar 2 satr $<$ 0, bu holda 4 satr = 2 satr)	
5.	Oraliq yakun (3 satr + 4 satr)	
6.	Hisobot sanasiga ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi (agar 5 satr $<$ 0, bu holda 6 satr = 0; agar 5 satr \geq 0, bu holda 6 satr = 5 satr)	

Mazkur shaklda berilgan ma’lumotlar to‘g‘riligi va to‘liqligini tasdiqlaymiz. Shuningdek, mazkur shakl sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq tuzilganligini tasdiqlaymiz.

Imzolar:

(F.I.Sh.)

(imzo)

(sug‘urtalovchi ijro etuvchi organining rahbari lavozimi)

Bosh hisobchi

(F.I.Sh.)

(imzo)

* Faqatgina sug‘urtalovchi tomonidan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha faoliyat olib borilgan taqdirda to‘ldiriladi. Mazkur jadvaldag‘i daromadlar, xarajatlar va moliyaviy natijani aniqlashda qo‘llaniluvchi barcha miqdorlar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishga taalluqlidir.

(2-ilova O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2021-yil 29-martdag‘i 18-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1882-6, 19.04.2021-y.) tahririda — Qonun hujjalari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2021-y., 10/21/1882-6/0346-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risidagi nizomga
 2¹-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

1-jadval*.

ning

(sug‘urtalovchining to‘liq nomi)

**20__ y. “__” holatiga tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy
sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasini hisoblash maqsadida daromadlar,
xarajatlar va moliyaviy natijalarning
HISOB-KITOBI**

Satr T/r	Ko‘rsatkich nomi	Miqdori (ming so‘m)
1.	Hisobot davrida hisoblangan sug‘urta brutto-mukofoti	
2.	Hisobot davri boshiga IMZ	
3.	Hisobot davri oxiriga (hisobot sanasiga) IMZ	
4.	Hisobot davri boshiga XZZ	
5.	Hisobot davri oxiriga (hisobot sanasiga) XZZ	
6.	Hisobot davri boshiga SXZZ	
7.	Hisobot davri oxiriga (hisobot sanasiga) SXZZ	
8.	Hisobot davrida amalga oshirilgan sug‘urta to‘lovlar	
9.	Shartnomalarning muddatidan oldin tugatilishi (shartlarining o‘zgartirilishi) munosabati bilan hisobot davrida sug‘urta qildiruvchilarga qaytarilgan sug‘urta mukofotlari (badallari)	
10.	Hisobot davrida tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishni amalga oshirish uchun amalga oshirilgan xarajatlar (shu jumladan, sug‘urta hodisalari sodir bo‘lishining oldini olish va ogohlantirish bo‘yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar) (10 satr = 1 satr x 30%)	
11.	Hisobot davrida IMZ, XZZ va SXZZ o‘zgarishi (11 satr = 3 satr — 2 satr + 5 satr — 4 satr + 7 satr — 6 satr)	
12.	Jami — daromadlar (agar 11 satr ≥ 0 , bu holda 12 satr = 1 satr; agar 11 satr < 0 , bu holda 12 satr = 1 satr — 11 satr)	
13.	Jami — xarajatlar (agar 11 satr ≥ 0 , bu holda 13 satr = 8 satr + 9 satr + 10 satr + 11 satr; agar 11 satr < 0 , bu holda 13 satr = 8 satr + 9 satr + 10 satr)	
14.	Moliyaviy natija (daromadlarning xarajatlardan yoki xarajatlarning daromadlardan yuqoriligi) (14 satr = 12 satr — 13 satr)	

2-jadval*.

ning

(sug‘urtalovchining to‘liq nomi)

**20__ y. “__” holatiga tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy
sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasining
HISOB-KITOBI**

Satr T/r	Ko‘rsatkich nomi	Miqdori (ming so‘m)
1.	Daromadlar (1-jadvalning 12 satri ma’lumotlariga ko‘ra)	
2.	Moliyaviy natija (daromadlarning xarajatlardanyoki xarajatlarning daromadlardan oshganligi) (1-jadvalning 14 satri ma’lumotlariga ko‘ra)	
3.	Hisobot davri boshiga tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi (TFJMS BZ)	

4.	TFJMS BZ ning ko‘payishi/kamayishi (agar 2 satr \geq 0,05 x 1 satr, bu holda 4 satr = 2 satr — 0,05 x 1 satr; agar 0 \leq 2 satr $<$ 0,05 x 1 satr, bu holda 4 satr = 0; agar 2 satr $<$ 0, bu holda 4 satr = 2 satr)	
5.	Oraliq yakun (3 satr + 4 satr)	
6.	Hisobot sanasiga tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi (agar 5 satr $<$ 0, bu holda 6 satr = 0; agar 5 satr \geq 0, bu holda 6 satr = 5 satr)	

Mazkur shaklda berilgan ma‘lumotlar to‘g‘riligi va to‘liqligini tasdiqlaymiz. Shuningdek, mazkur shakl Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq tuzilganligini tasdiqlaymiz.

Imzolar:

(F.I.Sh.)

(imzo)

(sug‘urtalovchi ijro etuvchi
organining rahbari lavozimi)

Bosh hisobchi

(F.I.Sh.)

(imzo)

* Faqatgina sug‘urtalovchi tomonidan tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha faoliyat olib borilgan taqdirda to‘ldiriladi. Mazkur jadvaldagi daromadlar, xarajatlar va moliyaviy natijani aniqlashda qo‘llaniluvchi barcha miqdorlar tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishga taalluqlidir.

(2¹-ilova O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2021-yil 29-martdagi 18-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1882-6, 19.04.2021-y.) tahririda — Qonun hujjalari ma‘lumotlari milliy bazasi, 19.04.2021-y., 10/21/1882-6/0346-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risidagi nizomga
3-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

ning
(sug‘urtalovchining to‘liq nomi)
**20___ y. “___” _____ holatiga sug‘urta zaxiralarining
UMUMIY MIQDORI**

Zaxiralar	Jami (ming so‘m)	Shulardan xorijiy valyutada			
		AQSh dollari	yevro	boshqa	jam'i (min ekv.)
Ishlab topilmagan mukofot zaxirasi (jami)					
1-hisob guruhi, shu jumladan:					
<i>FJMS bo‘yicha IMZ</i>					
<i>IFJMS bo‘yicha IMZ</i>					
<i>TFJMS bo‘yicha IMZ</i>					
2-hisob guruhi					
3-hisob guruhi					
4-hisob guruhi					

Qayta sug‘urtalovchilarning IMZdagi ulushi				
Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi (jami), shu jumladan: <i>FJMS bo‘yicha XZZ</i>				
<i>IFJMS bo‘yicha XZZ</i>				
<i>TFJMS bo‘yicha XZZ</i>				
Qayta sug‘urtalovchilarning XZZdagi ulushi				
Sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi (jami), shu jumladan: <i>FJMS bo‘yicha SXZZ</i>				
<i>IFJMS bo‘yicha SXZZ</i>				
<i>TFJMS bo‘yicha SXZZ</i>				
Qayta sug‘urtalovchilarning SXZZdagi ulushi				
Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi (FJMS BZ)				
Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi (IFJMS BZ)				
Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi (TFJMS BZ)				
Mukofotlar zaxirasi (jami)				

jumladan, hayotni sug‘urta qilishning jamg‘arilib boruvchi turlari bo‘yicha zaxira				
Qayta sug‘urtalovchilarining HZdagi ulushi				
Hayotni sug‘urta qilishning boshqa turlari (jamg‘arilib boruvchi turlaridan tashqari) bo‘yicha zaxira				
Qayta sug‘urtalovchilarining HZdagi ulushi				
Qayta sug‘urtalovchilarining mukofotlar zaxirasidagi ulushi				
Texnik zaxiralarning umumiyligini miqdori				
Qayta sug‘urtalovchilarining texnik zaxiralarda umumiyligini ulushi				
Ogohlantirish chora- tadbirlari zaxirasi (jami), shu jumladan:				
<i>FJMS OChZ</i>				
<i>IFJMS OChZ</i>				
<i>TFJMS OChZ</i>				
Sug‘urtanening boshqa turlari bo‘yicha OChZ				
Boshqa sug‘urta zaxiralari				
...				
Sug‘urta zaxiralarining umumiyligini miqdori				
Qayta sug‘urtalovchilarining sug‘urta zaxiralaridagi umumiyligini ulushi				

Mazkur shaklda berilgan ma'lumotlarning to‘g‘riligi va to‘liqligini tasdiqlaymiz. Shuningdek, mazkur shakl Sug‘urtalovchilarining sug‘urta zaxiralarini to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq tuzilganligini tasdiqlaymiz.

Imzolar:

(F.I.Sh.)

(imzo)

(sug‘urtalovchi ijro
organining rahbari la)

Bosh hisobchi

(F.I.Sh.)

(imzo)

(3-ilova O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2021-yil 29-martdagи 18-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1882-6, 19.04.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2021-y., 10/21/1882-6/0346-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risidagi Nizomga
4-ILOVA

(3-ilova O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009-yil 24-iyuldagи 74-sonli (ro‘yxat raqami 1882-1, 13.08.2009-y.) buyrug‘iga asosan 4-ilovaga almashtirilgan — O‘R QHT, 2009-y., 32-33-son, 367-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

ning

(sug‘urtalovchining to‘liq nomi)

**20__ y. “__” _____ holatiga aktivlar tarkibi to‘g‘risida
MA’LUMOT**

ming so‘mda

Aktivlar	Jami aktivlar		Ulardan ajratilgan aktivlar	
	O‘zbekiston Respublikasi hududida	O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida	O‘zbekiston Respublikasi hududida	O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida
1	2	3	4	5
Asosiy vositalar				
Ulardan, ko‘chmas mulk				
Nomoddiy aktivlar				
Investitsiyalar, jami				
Tijorat banklaridagi depozitlar (bank omonatlari)				
Kredit tashkilotlaridagi depozitlar (tijorat banklaridan tashqari)				
Xodimlarga berilgan qarzlar, (bog‘liq shaxslar hisoblanuvchi xodimlardan tashqari)				
Sug‘urtalovchining bog‘liq shaxslari hisoblanmaydigan ta’sischilari va aksiyadorlariga qarzlar				
Bog‘liq shaxslarga berilgan qarzlar				
Boshqa qarzlar				

Sho'ba korxonalariga qo'yilmalar				
Bog'liq shaxslarga qo'yilmalar				
Davlat qimmatli qog'ozlari				
Aksiyalar				
Obligatsiyalar				
Boshqa qimmatli qog'ozlar				
Boshqa investitsiyalar				
Pul mablag'lari, jami				
Hisob raqamidagi pul mablag'lari				
Kassadagi pul mablag'lari				
Xorijiy valyutadagi pul mablag'lari				
Boshqa pul mablag'lari va ekvivalentlar				
Boshqa aylanma aktivlar, jami				
Ishlab chiqarish zaxiralari (materiallar)				
Tugallanmagan ishlab chiqarish (xizmatlar)				
Sotib olingan xususiy aksiyalar				
Debitorlik qarzlar, jami				
Sug'urta qildiruvchilar bilan hisob-kitoblar				
Qayta sug'urtalovchilar bilan hisob-kitoblar				
Bo'nak to'lovlari				
Ta'sischilar bilan hisob-kitoblar				
Budjet bilan hisob- kitoblar				
Boshqalar				
Boshqa aktivlar, jami				
Boshqa aktivlar (ko'rsating)				
...				
JAMI AKTIVLAR				

Mazkur shaklda berilgan ma'lumotlar to'g'riliqi va to'liqligini tasdiqlaymiz. Shuningdek, mazkur

shakl sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risidagi Nizom talablariga muvofiq tuzilganligini tasdiqlaymiz.

Imzolar:

(F.I.Sh.)

(imzo)

(sug‘urtalovchi ijro etuvchi organining rahbari lavozimi)

Bosh hisobchi

(F.I.Sh.)

(imzo)

(4-ilova O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2021-yil 29-martdagи 18-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1882-6, 19.04.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2021-y., 10/21/1882-6/0346-son)

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 52-son, 529-modda; 2009-y., 32-33-son, 367-modda; 2011-y., 50-son, 532-modda; 2013-y., 6-son, 84-modda; 2015-y., 45-son, 580-modda; 2017-y., 29-son, 713-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2021-y., 10/21/1882-6/0346-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)